

**Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Iqtisod fanlari nomzodi dotsent
Aliqoriyev O.F taqrizi ostida**

**Payziyev Hamid Orziqulovich
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi MBA 22-03
guruh tinglovchisi
Email: rodmu72@gmail.com
Tel: +9989 91 576 72 54**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON HUKUMAT TIZIMINING ILMIY AMALIY MODEL ASOSLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning asosiy iqtisodiy madaniy va boshqa sohalarining asosiy negizi raqamlashtirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Elektron hukumat, Harakatlar strategiyasi, raqamli iqtisodiyot, informatsion oqim, Kommunikatsiya tarmoqlari.

ОСНОВЫ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация: В данной статье представлена информация о развитии электронных государственных услуг в условиях оцифровки экономики, оцифровке основных экономических культур и других сфер развивающихся стран.

Ключевые слова: Электронное правительство, стратегия действий, Цифровая экономика, информационный поток, сети связи.

FUNDAMENTALS OF THE SCIENTIFIC PRACTICAL MODEL OF THE ELECTRONIC GOVERNMENT SYSTEM IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Annotation: This article provides information on the development of electronic public services in the conditions of digitization of the economy, digitization of the main basis of the main economic cultural and other spheres of developing countries.

Keywords: E-Government, Action Strategy, Digital Economy, information flow, communication networks.

Bizga ma'lumki hozirgi tezkor rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning asosiy iqtisodiy madaniy va boshqa sohalarining asosiy negizi raqamlashtirilgan. Bu esa hozirgi XXI asrning asosiy ko'rinishi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ushbu sohani takomillashtirish maqsadida ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, har bir yarim yilda informatsion oqim ikki barobarga oshib bormoqda. Jadal sur'atlarda rivojlanish sharoitida raqamlashtirish zaruriyati yanada oshadi. Bu o'z navbatida, juda ko'p resurslarni talab qiladi. Shu bois hozirdan raqamli iqtisodiyotga o'tish muhim vazifaga aylanmoqda. O'zbekiston yaqin kelajakda aholi turmush darajasini tubdan yaxshilab, dunyoning rivojlangan 50 mamlakati qatoriga kirishni maqsad qilgan. Bu boradagi islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan ham ijobiy baholanmoqda.

Elektron hukumat — Barcha ham „ichki“, ham „tashqi“ aloqalar va jarayonlar majmuasi bo'lib, tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan quvvatlanib va ta'minlanib turadigan

hukumat. Kommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan Internet) orqali axborotga ishlov berish, uni uzatish va tarqatishni elektron vositalari asosida davlat boshqaruvini tashkil qilishni, davlat hokimiyati organlarini barcha bo‘g‘inlari tomonidan fuqarolarning barcha toifalariga elektron vositalar bilan xizmatlar ko‘rsatish, o‘sha vositalar yordamida fuqarolarga davlat organlarining faoliyati haqida axborot berish. „Elektron hukumat“ tushunchasi 1990-yillarning boshida paydo bo‘lgan, lekin amaliyotga so‘nggi yillardan boshlab tatbiq qilina boshladi. Elektron hukumatni ishlab chiqish bilan birinchi galda AQSh va Angliya hamda Italiya, Norvegiya, Singapur, Avstraliya va ayrim boshqa davlatlar (Fransiya, Germaniya, Katar, BAA va h.k.) shug‘ullandilar. Elektron hukumatning uch asosiy rivojlanishi tizimi ajratiladi: - hukumat- aholi (G2C); - hukumat — biznes (G2B); - hukumat — hukumat (G2 G). O‘zbekistonda ham elektron hukumat barpo qilish ishlari boshlab yuborilgan. Jahon tajribasiga mavjud amaliyotga ko‘ra, u ikki o‘zaro bog‘langan, lekin funksional jihatdan mustaqil qismlardan, Hukumat Intranetidan va tashqi infratuzilmadan tarkib topgan. Hukumat Intraneti axborot tizimining ichki infratuzilmasini qamrab oladi, u davlat tuzilmalari tomonidan davlat korporativ vazifalarini amalga oshirishdagi o‘zaro munosabatlarda foydalaniladi. Tashqi infratuzilma, davlatni fuqarolar (G2C) va tashkilotlar (G2B) bilan o‘zaro ishlashini ta’minlaydigan ommaviy axborot infratuzilmasini qamrab oladi.

Prezident Sh.Mirziyov ta’kidlaganidek, “Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi”.

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning qo‘shimcha vazifalari etib belgilansin:

- 2023-yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko‘paytirishni nazarda tutgan holda, shu jumladan ishlab chiqarishni boshqarishda axborot tizimlari kompleksini joriy qilish, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatda hisobot yuritishda dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish, shuningdek, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali uni jadal shakllantirish;
- 2020-2021-yillarda barcha sog‘liqni saqlash muassasalari, maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarini, shuningdek, qishloqlar va mahallalarni yuqori tezlikdagi Internet tarmog‘iga ulash hamda aloqa xizmatlari sifatini oshirishni ko‘zda tutgan holda mamlakatning raqamli infratuzilmasini to‘liq modernizatsiya qilish va zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan barcha hududlarda foydalanish imkoniyatini ta’minlash;
- 2022-yilga qadar elektron davlat xizmatlari ulushini 60 foizgacha yetkazishni nazarda tutgan holda davlat axborot tizimlari va resurslarini yaratish hamda integratsiya qilish, davlat ma’lumotlar bazalaridagi axborotlarni unifikatsiya qilish, shuningdek, davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibotlarini optimallashtirish va tartibga solish orqali elektron hukumat tizimini rivojlantirish;

- dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik maydonchalar yaratish orqali “raqamli tadbirkorlik”ni rivojlantirish, 2023-yilga kelib ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga yetkazish;
- ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo’lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, “Besh tashabbus” loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o’qitish markazlarini ochish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi” (yangi tahriri) , 2019-yil 30-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli
4. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832 sonli.
5. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari Gulyamov.S.S 2019
6. <http://soliq.uz>
7. Baytanov, O. R. (2017). Ўзбекистонда солиқ тизимини такомиллаштириш орқали оилавий тadbirkorликни янада ривожлантириш. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 6, 62-68.
8. Baytanov, O. (2023). O ‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT SANOATI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 446-449.
9. Mirzaqul o'g, B. O. R. (2023). HUDUDLARDA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHNI RAG'BATANTIRISH USULLARI.
10. Салохитдинов, Ш. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ НАЗАРИЙ ЁДАШУВЛАРИ. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(3), 405-409.
11. Салохитдинов, Ш. (2024). ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ БЎЙИЧА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(1), 466-473.